

## QORAMOLCHILIKNI INTENSIV RIVOJLANTIRISH OMILLARIDAN FOYDALANISH

*Ma'rifjon Primqulov*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti*

**Annotatsiya:** So'nggi yillarda chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnika bazasining talab darajasida emasligi, mahsulot ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini va tarmoqni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini bozor talablariga mos holda yanada takomillashtirishni zarurligi hamda tarmoq ishlab chiqarishida yangi texnologiyalarni qo'llashni yetarlicha rag'batlantirilmasligi mahsulot ishlab chiqaruvchilar va uni qayta ishlovchilar hamda uning savdosi bilan shug'ullanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning nomukammalligi va boshqa shu kabi masalalar chorvachilikni barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlanishi va ularning iqtisodiy samaradorligini optimal darajaga ko'tarilishi ularda ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish asosida amalga oshirilishining taqozo etadi.

**Kalit so'zlar:** chorvachilik, qoramolchilik, intensiv usul, naslchilik, seleksiya, iqtisodiy samaradorlik, tannarx, foyda, rentabellik.

Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda oqsilga boy mahsulotlar, jumladan, go'sht va sut mahsulotlari katta ahamiyatga ega. Asrlar davomida chorvachilik sohasi O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan. Chorvachilik qishloq aholisi uchun oziq-ovqat va daromad olishning muhim manbaiga aylandi. Bozor iqsosodiyoti mexanizmlari faollashib, oziq-ovqatga talab ortib borayotgan ushbu kunda mazkur soha samaradorligini va raqobatdoshligini yanada oshirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda chorvachilik qishloq xo'jaligining yetakchi sohalaridan biri bo'lib, aholini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda alohida o'ringa ega. Ushbu tarmoqning qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 34 foizni tashkil etadi. Tarmoqning respublika iqtisodiyotidagi muhim ahamiyatini inobatga olgan holda, sohani rivojlantirish va mavjud imkoniyatlardan keng foydalanish kerak.

So'nggi yillarda chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnika bazasini talab darajasida emasligi, mahsulot ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini va tarmoqni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini bozor talablariga mos holda yanada takomillashtirishni zarurligi hamda tarmoq ishlab chiqarishida yangi texnologiyalarni qo'llashni yetarlicha rag'batlantirilmasligi mahsulot ishlab chiqaruvchilar va uni qayta ishlovchilar hamda uning savdosi bilan shug'ullanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning nomukammalligi va boshqa shu kabi masalalar

chorvachilikni barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlanishi va ularning iqtisodiy samaradorligini optimal darajaga ko'tarilishi ularda ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish asosida amalga oshirilishining taqozo etadi.

Bir so'z bilan aytganda, chorvachilik taraqqiyotini ta'minlashda intensiv rivojlantirishning tutgan o'rni va ahamiyati beqiyos darajada kattadir. Sababi, qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligini keskin oshirish asosida tarmoqda ozuqa bazasini va mahsulot hajmini ko'paytirish, uni tannarxini pasaytirish va sifatini yaxshilash faqatgina intensiv rivojlantirish asosidagina amalga oshirilishi mumkin. Fermer xo'jaligida ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish omillardan biri bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni to'la mexanizatsiyalashtirish hisoblanadi. Bunda xodimlarni texnika bilan qurollantirish darajasi keskin ortib ishlab chiqarishdan katta miqdordagi ish kuchi siqib chiqariladi. Buning uchun chorvachilik fermer xo'jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb etilishi talab qilinadi. Lekin ularni texnik-texnologik jihatdan qayta qurollantirish uchun yetarli bo'lgan investitsiya manbalari hozirgi kunda mamlakat ichida mavjud emas. Shuning uchun ham ushbu masalani qisqa muddatlarda samarali hal etilishi fermer xo'jaliklariga katta miqdordagi material investitsiyalarni horijdan jalb etilishi bilan bog'liqdir. Bunda asosiy e'tiborni to'g'ridan-to'g'ri horijiy investitsiyalarni jalb etilishiga qaratish lozim.

Intensivlashtirish jarayonining asosiy omillardan biri – chorvachilik tasarrufidagi yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va sug'orish tizimini takomillashtirishdir. Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish nazariyasi yerni chorva ozuqa bazasi uchun birlamchi qishloq xo'jaligiga mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni tutgan o'rni va ahamiyatiga asoslanadi. Yer qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni almashtirib bo'lmaydigan, doimiy va asosiy vositasi bo'lib hisoblanadi. Yer qishloq xo'jaligida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu avvalo uni tabiiy cheklanganligi va o'z unumdorligini oshirib borish imkoniyati bilan xarakterlanadi. Yerning bu xususiyatlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishning moddiy asosini tashkil etadi. Chorvachilik mahsulotlari hajmini ko'paytirishni ozuqa uchun ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga amalga oshirish imkoniyatlarini cheklanganligi ishlab chiqarishga qo'shimcha sarmoyalarni jalb etish asosida mavjud foydalanilayotgan yerlar unumdorligini oshirish asosida intensiv rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish omillaridan samarali foydalanish masalalarida e'tibor qaratish zarur bo'lgan hozirgi vaqtda birinchi navbatda tuproq unumdorligini va chorva mahsuldorligini oshirish choralari ko'rish, ozuqa bazasini yaratishda barcha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy qilish, seleksiya va naslchilikni yanada rivojlantirish, mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish zarur.

Fermer xo'jaligida ishlab chiqarishning intensiv rivojlantirish bir qator omillar asosida amalga oshiriladi. Fermer xo'jaliklarini intensiv rivojlantirishda yuqoridagilardan tashqari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni kimyolashtirish va dehqonchilik madaniyatini ko'tarilishiga ham aloxida e'tibor berilishi zarur. Agar qishloq xo'jaligi ekinlari, xususan yem-xashak ekinlarining hosildorligini yarmidan ko'pi mineral o'gitlar hisobiga olinishi e'tiborga olinsa, bu omillarning ahamiyatini tushunib yetish qiyin emas. Fermer xo'jaliklarini intensiv rivojlantirishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillar o'zining kutilgan iqtisodiy samarasini bera olishi uchun dehqonchilik madaniyatini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish lozim. Dehqonchilik madaniyatini oshirish ishlab chiqarishda yangi texnologiyalarni qo'llash, ekinlarning intensiv navlarini jory etish, ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirishni takomillashtirish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Intensiv rivojlanish usulidan samarali foydalanish asosida hozirgi kunda chorva mahsuldorligini ko'tarish imkoniyatlari mavjud. Bu dehqonchilik madaniyatini keskin oshirish asosida intensiv rivojlanishning yuqoridagi omillardan uzviy bog'liqlikda oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Fermer xo'jaligini intensiv rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi uni yakuniy natijasi hisoblanadi. Intensiv rivojlantirish oxir oqibatda fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorligini oshirishni ta'minlashi lozim, aks holda uni amalga oshirishning hech qanday ma'nosi bo'lmaydi. Intensivlashtirish darajasining ko'tarilishi qo'shimcha xarajatlar va resurslarni jalb etilishi asosida amalga oshirilsa ham oxir oqibatda mahsulot birlamiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlarning hajmi qisqarishi kerak.

Xulosa qilib aytilganda, intensivlashtirish jarayoni chorvachilikda mahsulot tannarxini pasaytirib, uning sifatini yaxshilanishi asosida qo'shimcha daromad keltirishi lozim. Ozuqa biriligi hisobiga olingan foyda intensivlashtirish jarayonida erishilgan iqtisodiy samaradorlikning eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu sohadagi asosiy vazifa fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini keskin oshirish bo'lib hisoblanadi. Samaradorlik murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya hisoblanib uni baholashda bir qator natural va qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ular ichida rentabellik asosiy o'rinni egallaydi va u samaradorlikning asosiy yakunlovchi ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari optimal rentabellikka erishishlari uchun uni kamida 40 foizga ko'tarish talab etiladi. Aks holda ular kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning begligangan sur'atlarda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lmaydilar.

Qoramolchilikda asosiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, masalan, sutning yog'lilik darajasi, kaloriyasi, bir sog'in sigirdan sog'ib olingan kunlik sut miqdori, mollarning sutkalik o'sish vazni, go'shtga topshirilgan qoramolning tirik hamda

so'yilgan vazni, ular o'rtasidagi nisbiy farq kabi ko'rsatkichlar tarmoqning iqtisodiy samaradorligini to'laqonli baholash imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari qoramolchilikda intensivlashtirish samaradorligini baholashda natural, qiymat ko'rsatkichlar qatorida quyidagi nisbiy ko'rsatkichlardan ham foydalanish holatni keng qamrovli baholashga asos bo'ladi. Demak, naslli mollarning jami mollar sonidagi salmog'i; xo'jalikning qulaylik jihatdan joylashgan joyi; turlar va sifat bo'yicha servis xizmati ko'rsatish darajasi; mollarning jami ozuqa va uning turlari bilan ta'minlanganligi; xo'jalikning mehnat resurslari ta'minlanganlik darajasi; xo'jalikning malakali kadrlar bilan ta'minlanganligi darajasi; xo'jalikning yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasi; qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tovarlilik darajasi; yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining qayta ishlanish darajasi; sutning sifati, yog'lilik darajasi; xo'jaliklarda texnologik jarayonlarning mexanizatsiyalashganlik darajasi kabi ko'rsatkichlarning o'zaro bo'g'liq tizimli tahlillari haqiqiy holatni baholashga yordam beradi.

Chorva mollarining tirik mavjudot sifatida rivojlanishi biologik jarayon bo'lib, uni boshqarish va, shuningdek, chorva mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish birinchi navbatda oziqlantirish ratsionlarini ilmiy asoslangan holda har bir molning turi va yoshiga mos ravishda belgilash va mollarning genetik xususiyatlarini innovatsion texnologik takomillashtirib borish asosida ular naslini yaxshilashga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan ham, chorva mollari mahsuldorligi, mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligi yuksak darajaga yetgan horijiy davlatlarning ushbu yo'nalishdagi amaliyotga tatbiq etayotgan innovatsion texnologiyalarini respublikamiz sharoitida keng va samarali foydalanish yo'llarini asoslash muhim ahamiyatga ega.

#### **Adabiyotlar:**

1. B.Z.Nosirov, Peculiarities of formation and development of the regional food market (on example of Andijan region. Abstract of the diss. for PhD. T.: SISM, 2004.
2. Юрий Наумов, Игорь Пугач. Проблемы и перспективы развития животноводства в Узбекистане. Discussion paper. 2019. #188. Leibniz Institute of Agricultural Development in Transition Economies (IAMO).
3. Ю.Б.Юсупов, Ц.Лерман, А.С.Чертовицкий, О.М.Акбаров. Ўзбекистонда чорвачилик: бугунги ҳолат, муаммолар ва тараққиёт истикболлари. Аграр секторни ривожлантириш тенденциялари нуқтаи назаридан таҳлил.. БМТ Тараққиёт дастури, Ўзбекистон Тошкент 2010.
4. B.Nosirov, M.Mirzakarimov. Features of development of milk production in Uzbekistan. The scientific heritage. No 91 (2022) p.32-35. ISSN 9215-0365. DOI: 10.5281/zenodo.6695687.

5. B.Nosirov. Some problems of development of livestock industry. Science and education in agriculture. Volume 1, Issue 2. 2022. <https://www.seagc.andqxai.uz>
6. Nosirov B. Z., Ergashev A. A., Islamova D. T. Development prospects of food markets in Andijan province // THEORIA: педагогика, экономика, право. 2020. №1 (1). URL: <https://theoria.apni.ru/article/17-development-prospects-of-food-markets>
7. Nosirov B., Rakhmonova B. Organization of production of walnuts in an industrial volumes. International online conference ECLSS Economics and Social sciences. Proceeding book. June 28-29, 2020. Istanbul, Turkey. P. 59-67. <http://eclss.org/publicationsfordoi/istanbulonline.pdf>
8. B.Nosirov, Sh.Abdullaev, H.Yuldasheva. Relevance of development of multiple-profile farms. International journal for innovative Engineering and Management Research (IJIEMR). 2021. Volume 10, Issue 03, Pages: 516-521. ISSN 2456-5083. <https://ijiemr.org/public/uploads/paper/638741617019191.pdf>
9. B.Nosirov. Features of development of livestock industry in the field of food security. Sustainable agriculture. 3(15).2022. p.17-20. <http://sa.tiame.uz/en/page/axiv>
10. B.Nosirov. Basis for the development of the regional food market. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume 1(11), 2021. p.65-71.
11. U.Sangirova, B.Nosirov, B.Rakhmonova. Organization of walnut production based on the industrial method in Uzbekistan. Sustainable agriculture. 2(6).2020. p.24-26. <http://sa.tiame.uz/en/page/axiv>
12. B.Nosirov, A.Raximov. Development of wholesale food markets.American Journal of Science and Learning for Development. Volume 2, No 1. Jan-2023. P. 47-50. ISSN: 2835-2157. <http://inter-publishing.com/index.php/AJSLD/article/view/898>
13. B.Nosirov, D.Fakhriddinova . Reducing the cost of products in agroclusters in the digital economy. Journal of New Century Innovations. Volume 23, No 2. February-2023. P. 19-24. <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/3748/3539>
14. B.Nosirov, A.Abdurashidov. Development of elements of food markets.Web of scientist: International scientific research journal. ISSN: 2776-0979. Volume 4, Issue 3, 2023. P. 881-886. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3544/3398>